

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN
TANISHTIRISHDA HADISLARNING O'RNI VA AHMIYATI.**

TerDPI katta o'qituvchisi

PhD Xolboyeva Gulnora Ulashovna.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni asrab avaylashga o'rgatish yo'llari hamda tarbiyachining faoliyatlarini tashkil etishda foydalaniladigan vositalar, hadislar, rivoyatlar hamda ularni bolalarda ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Ekologiya, hadislar, MTT, «Abasa» surasi, oyatlar, maktabgacha yosh, populyasiyasi, jamiyat, tabiat.*

***АННОТАЦИЯ** В статье рассматриваются способы обучения детей дошкольного возраста бережному отношению к окружающей среде, а также инструменты, хадисы и предания, используемые при организации деятельности воспитателей, и их роль в формировании экологической культуры детей.*

***Ключевые слова:** Экология, хадисы, МТТ, сура «Абаса», аяты, дошкольный возраст, население, общество, природа.*

***ANNOTATION** The article examines the methods of teaching preschool children to respect the environment, as well as the tools, hadiths and traditions used in organizing the activities of educators, and their role in the formation of children's environmental culture.*

***Key words:** Ecology, hadith, MTT, surah "Abasa", verses, preschool age, population, society, nature.*

KIRISH

Xalqimiz qadim zamonlardan —badanning quvvati — ovqat va aqlning quvvati — hikmatli so'zdir, deb uqtirib kelgan. Hadislar mana

shunday hikmatli so'zlar hamda donishmandlik durdonalari hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hadislar ilmi bilan shug'ullangan mashhur markaziy Osiyolik allomalar Abu Abdulloh, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy va Abu Muhammad Abdullox ibn Abu ar-Raxmon ad Daramiy as-Samarqandiylar hadis ilmining asrdan-asrga saqlanib borishga ulkan hissa qo'shgan buyuk tarixiy shaxslar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekologik ta'lim va tarbiyani singdirishda Hadis bandlarining o'rne beqiyosdir. Ularda ayrim o'simliklar va hayvonot turlarining xossalari, ozuqada tutgan o'rne hamda inson faoliyatidagi ahamiyati haqida nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergashga hamda ularni muhofaza qilishga o'rgatadi. Masalan, hadislarda —qo'y boq, zero ayni barakadur deyiladi. Demak, bu erda foydali hayvonlar populyasiyasini ko'paytirish hamda ulardan turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Hadislarda ba'zi yosh hayvonot turlarini qurbonlik qilmaslik hamda yosh populyasiyaning miqdorini saqlab qolish, voyaga etgandan keyin undan samarali foydalanish, shuningdek, bahor paytida ularning ko'payishini nazarda tutib, aynan mana shu oylarda qurbonlik qilmaslikka alohida to'xtalib o'tilgan. Ekologiyaga oid hadislardan quyidagi namunalarni keltirish mumkin:

1. Qo'y boq, zero u ayni barakadur. Bu tilsiz hayvonlar to'g'risida Ollohdan ko'rqinglar. Ularni so'yishga yaroqli qilib, ya'ni syemirtirib so'yib englar.

2. Qo'y barakadur, tuya ahliga izzatdir (egasiga azizdur).
3. Otning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan kishi yaxshilik ko'radi.
4. Tirik hayvondan kesib olingan et harom hisoblanadi.
5. Islom dinida hayvoning bosh bolasini qurbonlik qilish bilan irim qilish yo'qdir hamda rajab oyining boshida qurbonlik qilish ham yo'qdir.
6. Yirtqichlarning go'shtlari haromdir.
7. Beshta yomon hayvonot turi borki, ular hajda ham, tashqarida ham o'ldiraveriladi; ilon, olaqarg'a, sichqon, kalxat va quturgan it.
8. Ko'z oldingda otib tushurganingni egin, qochirib yuborganingni (o'lgan holda, keyin topib olsang) qo'y, ema.
9. Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. U muborak kasbdur. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar.
10. Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat-qoyim bo'lishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yaving.
11. Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tqazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon esa, uning ekkanidan eyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.
12. Soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan duzaxga tashlanadi.
13. Kimki suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shaxidlik ajri beriladi.
14. Olov dushmandir, undan ehtiyot bo'linglar.
15. Suv muqaddas unsurlardan biridir. Suvga tupurmanglar, makrux bo'ladi.
16. Shamolni so'kmanglar, chunki u Olloxning rahmatidandir. U rahmatni ham, azobni ham olib keladi, lekin sizlar Olloxdan uning

yaخشiligini so'ranglar va yomonligidan panoh tilanglar. Shunday qilib, Yerga, suvga, hayvonot hamda hasharotlarga munosabatlarimizni tiklashimiz orqaligina Ona – tabiatimizni asrab qolishimiz va insonlarda unga nisbatdan muxabbat uyg'otishimiz mumkin. Buning uchun hadislar har bir inson uchun dasturamal bo'lmog'i zarur. Alloh taolo bu dunyoni cheksiz hikmatlarga to'la holda yaratgandir. Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalar va go'zal tabiat chin mo'minlar uchun katta ibrat hamda Allohning qudratiga misoldir. Har kuni umr daftarimizdan yangi bir sahifa ochilgani kabi atrofimizdagi olamning ham surati har kuni yangilanadi hamda eng qizig'i shundaki bu yangilanishlar aslo bir-birini takrorlamaydi. Kecha va kunduz doim almashib turadi. Biri uzaysa, ikkinchisi qisqaradi bu tabiat qonuni. Biz ularni boshimizdan o'tkazib, umrimizning hisobini shu kecha va kunduzlar bilan o'lchaymiz. Shu almashish jarayonida fasllar ham yangilanib boradi. Qish faslida go'yo oppoq kafanga o'rangandek qor ostida yotgan o'lik yerni bahor faslida Alloh taolo qayta tiriltiradi. Agar Alloh kecha va kunduzni aylantirmasa, osmondan suvlarni tushirib yerni tiriltirmasa va er yuzida hayot bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun har bir musulmon atrofga ibrat nazari bilan qaramog'i hamda tabiatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lmog'i lozim. Alloh taolo Qur'oni karimning «Abasa» surasi 24-32-oyatlarida shunday marhamat qiladi:

«Endi inson o'zining taomiga (ibrat ko'zi bilan) boqsin! Biz (osmondan) suvni mo'l yog'dirdik. So'ngra Biz unda donlarni undirdik, uzum va ko'katlarni, zaytun hamda xurmolarni, qalin daraxtzor bog'larni mevayu giyohlarni ham. Bular sizlar uchun hamda chorva hayvonlaringiz uchun manfaatdir»

Bir podshox o'z vaziri bilan sayrga chiqib bir qishloqdan o'tib borar ekan, bog'ida ishlayotgan qari bir cholni ko'rdi. Chol qarib qolganiga qaramay mehnat qilib daraxt ko'chatlarini ekayotgan edi. Cholning bunday mehnat qilishi podshoxga juda yoqdi. Podshoh vaziriga shu chol bilan biroz suhbatlashaylik, deya cholning oldiga keldi va shunday dedi.

Podshoh: «Xormang ota, nima qilayapsiz? Yerga nima ekayapsiz?», dedi.

Chol: «Salomat bo'ling shohim. Mevali daraxt ekayapman»

Podshoh: «Otaxon, bularning mevalarini yeyish sizga nasib etarmikan, axir bu siz qarigan bo'lsangiz, bu daraxtlar ko'p yillardan so'ng hosil beradi-ku?», dedi.

Chol: «Bularni yeyish menga nasib etmasa kerak», deb javob berdi.

Podshoh: «U holda nega o'zingizni bunchalar qiynab mehnat qilib bu daraxt ekayapsiz? O'zingiz mevasini tatib ko'rmasligingizni bila turib daraxt ekayapsiz-a?», deb so'radi.

Chol: «Podshohim, bizdan oldingi ota-bobolarimiz ekdilar, biz yedik. Endi biz ham ekamiz va bizdan keyingilar yeyishsin», dedi.

Bu javob podshohga ma'qul bo'ldi hamda cholga bir hamyon oltin berdi.

Chol oltinlarni olib: «Allohga shukurlar bo'lsinki, bizning daraxtimiz bugunning o'zida hosil berdi», dedi.

Bu javob podshohga yoqdi hamda cholga yana bir hamyon oltin berdi.

Chol: «Allohga hamdu sanolar bo'lsinki, hamma daraxtlar bir yilda bir marotaba hosil bersa, mening ekkan daraxtim ikki marotaba hosil berdi», dedi.

Podshoh unga yana bir hamyon oltin bermochi bo'ldi. Shunda vazir darxol to'xtatib: «Ey podshohim bu yerdan tezroq ketmasak

xazinangizdagi oltinlar tugab qoladi», dedi. Shunda Podshoh o'z yo'lida davom etdi.

Chol juda xursand bo'lib, qo'lini duoga ochdi: «Yo Robbim, sen buyuksan men vaqtimni bekor o'tkazmay sening roziliging uchun daraxt ekaman», dedi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, barchamiz o'zimiz yashab turgan joylarga, mahalla-kuylarga turli daraxt ko'chatlarni ekib obod qilsak, bundan nafaqat insonlar, balki hayvonlar hamda qushlar ham manfaat topadi. Hadisi sharifda aytilishicha, ekilgan har bir daraxtning aytayotgan tasbehi, o'sha daraxtni ekkan kishining nomai a'moliga yoziladi hamda uning mevasidan boshqalar yesa yoki soyasida o'tirsa ekkan kishining amal daftariga sadaqa savobi yozib qo'yiladi. Mana shu o'rinda quyidagi rivoyatni aytib o'tishlik o'rinli bo'ladi.

Inson o'z uyiga qanday e'tibor bersa, atrofga ham shunday munosabatda bo'lishi shart. Chunki butun yer yuzi insonlar uchun maskandir. «Toho» surasining 53-oyatida Alloh yerni shunday ta'riflaydi:«U Yerni sizlar uchun beshik (qarorgoh) qilib qo'ydi va unda yo'llar paydo qildi va osmondan suv (yomg'ir, qor) yog'dirdi. Bas, Biz u (suv) bilan turli o'simlik navlarini undirib chiqardik» Go'dak uchun beshik qanday qarorgoh bo'lsa, yer ham inson uchun shunday qarorgohdir. Yerni beshik qilib undan rizqlantirib, yuvib-tarab turgan, osmondan suv tushirib daraxt hamda giyohlarni undirib qo'ygan zot Alloh taolodir. Hayotimizda shu yer ustida yashayotgan bo'lsak, vafot etganimizdan keyin ham shu yer bag'rida yotamiz. O'zimizning uzoq muddat maskanimiz bo'lgan bu yerni asrab avaylash hamda obod qilish, o'zimiz uchun foydadir. Atrofimizni turli zararli narsalardan hamda

ifloslanishdan saqlasak, o'zimiz va ahlimizning hayotini, salomatligini saqlagan bo'lamiz. Atrofimizni o'rab turgan tabiat biz uchun shunday moslashtirilganki, tabiatdagi barcha narsalar faqatgina insonlar manfaati uchun xizmat qiladi. Ammo mana shu go'zal tabiat shunchalar nozikki, unga keltirilgan birgina oddiy zarar ham kelajakda juda katta to'g'irlab bo'lmas xatolarga olib keladi. Shunday xatolarning eng kichigi bu atrof muhitni ifloslashtirish, suvlarga chiqindi tashlash, o'sib turgan ekinlarni hamda daraxtlarni behudaga sindirish kabi yomon ishlar hisoblanadi. Bular oddiy e'tiborga loyiq bo'lmagan ishlardek tuyulishi mumkin, ammo, aynan mana shu bee'tiborlik natijasida biz yashayotgan ekologiya qancha zarar ko'rishimizni yaxshilab o'ylab ko'rmog'imiz lozim. Bunday ishlar esa insonlar tomonidan Alloh bergan ne'matga va omonat qilib berilgan tabiatga hiyonatdir. Nahotki ongli qilib yaratilgan insoniyat ekologiyani ifloslantirish natijasida o'zi hamda kelajak avlodining salomatligiga putur etkazayotganini anglamasa!? Axir bizlar ona tabiatni bus-butunligicha asrab kelajak avlodga etkazib berishga mas'ul emasmizmi!?

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tabiatni muxofaza qilish tarbiyasi islom nuqtai nazarida jamiyatning katta yoshdagi a'zolari vazifasidir. Katta yoshdagi kishilar atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ozodalikni asrab avaylashda yoshlarga o'rnak bo'lishlari va bu hususida tarbiya berishlari kerak bo'ladi. Bizning bobolarimiz hamda buvilarimiz suvga tupurma, ko'chalarga axlat tashlama, ariqlarga chiqindilarni supurma, ko'karib turgan o'simlikni nobud qilma deya uqtirgan so'zlarini doimo esimizdan chiqarmasligimiz hamda yoshlarga ham shularni o'rgatmoqligimiz lozim. Bundan tashqari xalqimiz orasida «Birni kessang o'nni ek» degan

ibora ham mavjud. Darhaqiqat biz bugun kesgan birgina ko'chatning tabiatdagi zarari yillar o'tib uning o'rniga ekan daraxtimiz orqali qoplanadi hamda shunda ona tabiatning toza havosiga, ko'kalamzorligiga putur etkazmagan hisoblanamiz. Hulusa qilib aytadigan bo'lsak, Alloh bizlarga ne'mat qilib bergan ona tabiatni asrab avaylash, uni muhofaza qilish hamda ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik har bir kishining insoniylik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy .
“Al-jome' as-sahih”. Toshkent 1997 yil.
- 2.Qodirova.N. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi,” Toshkent 2020.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., Azamova N.
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi Toshkent-2019.
4. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. «Ал-Жомийъ ас-саҳийх».1980 yil.